



Improving students' professional and methodological skills in teaching the “Mother Language Teaching Methodology” discipline

Shakhnoza NURMATOVA¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

10 December 2023

Accepted 25 January 2024

Available online

25 March 2024

Keywords:

independent education,
methods,
innovative,
reader,
lesson,
interactive.

ABSTRACT

This article aims to improve the professional methodological training of students in the teaching “Native Language Teaching Methodology” discipline.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1-pp200-203>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Talabalarning “Ona tilini o’qitish metodikasi” fanini o’qitishga doir kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish

ANNOTATASIYA

Kalit so’zlar:

mustaqil ta’lim,
metodlar,
innovatsion,
o’quvchi,
dars,
interfaol.

Mazkur maqolada talabalarning “Ona tilini o’qitish metodikasi” fanini o’qitishga doir kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish haqida fikrlar bayon etilgan.

¹ Teacher, Department of Mathematics and its Teaching Methodology in Primary Education, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi.

Совершенствование профессионально-методических навыков студентов при преподавании предмета «Методика преподавания родного языка»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

самостоятельное обучение, методы, инновационный, ученик, урок, интерактивный.

Данная статья направлена на совершенствование профессионально-методической подготовки студентов по предмету «Методика преподавания родного языка».

Mustaqil ta'lim olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot, turli axborot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ta'limning afzalligi – talabalar bilimlarni o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoit va vaqtda o'zlashtira oladilar, bunda mavjud nashr materiallari (o'quv, ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop asarlar), Internet, ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan materiallar yordamida o'z bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

Mustaqil ta'lim metodlari turli shakl va usullarda amalga oshiriladi. Pedagogik kuzatuvlarimiz asosida mustaqil ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklarini aniqlashtirdik:

- birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;
- ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog'liq;
- uchinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;
- to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;
- beshinchidan, oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;
- oltinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;
- yettinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

“Ona tilini o'qitish metodikasi” fanidan mustaqil o'rganish jarayonida maqsadni amalga oshirishda ustanovka va ko'nikma tafakkur usuli sifatida ishtirok etadi. Fikrlar esa malaka shaklida qabul qilinadi. Samaraliroq ishlash uchun diqqatni jamlash, quvvatni aql bilan maqsadga yo'naltirish lozim. Uzoq va yuqori samaradorlikning siri vaqtni boshqarish va qattiq ishlashda emas, inson o'zini, aynan quvvatini boshqarishda, aniq maqsadga yo'naltirilganlikdadir. Buning uchun belgilangan vazifalarni aniq bir davrda amalga oshirish lozim.

Boshlang'ich ta'limni o'qitishda texnologik yondashuv uning samaradorligini oshirishga yordam beradi, va aynan:

1. U o'quv jarayonini tizimli tashkil yetishga yo'naltiradi, u insonning bilish faoliyatining texnologik qonuniyatlariga muvofiq/mos keladi;

2. U ta'lim tizimining yangi pedagogik paradigmasiga mos keladi (adekvat), shaxsga yo'naltirilgan pedagogika haqidagi qoidalar uning ustuvor g'oyalari hisoblanadi;

3. Bu o'quv jarayonining metodik ta'minotini yangicha tashkil etish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Ona tilini o'qitish metodikasi" fanini o'qitishga doir kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun dastlab "Ona tilini o'qitish metodikasi" fanining mazmun mohiyatini o'rgandik va umumlashtirdik. Ona tilini o'qitish metodikasi bilan bog'liq ilmiy manbalar va ularning ilmiy-pedagogik tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Ona tilini o'qitish metodikasi" fanini o'qitishga doir kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, uning komponentlari mazmunining "Ona tili" faniga oid muammolarni qamrab olishiga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning asosi bo'lgan "Ona tilini o'qitish metodikasi" fanining mazmuni

<i>"Ona tili o'qitish metodikasi" fani quyidagi masalalarni o'rganadi:</i>	<i>"Ona tili o'qitish metodikasi" fani quyidagi mavzularni o'rganadi:</i>
<i>Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari</i>	<i>Fonetika va grafika asoslarini o'rganish metodikasi</i>
<i>Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari</i>	<i>So'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi</i>
<i>Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari</i>	<i>Grammatikaga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari</i>
<i>Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari</i>	<i>Orfografiyani o'qitish metodikasi</i>
<i>Boshlang'ich sinflarda "Ona tili o'qitish metodikasi" fani quyidagi bo'limlarni o'rganadi:</i>	<i>So'z turkumlarini o'rganish metodikasi</i>
<i>Savod o'rgatish metodikasi</i>	<i>Nutq o'stirish metodikasi</i>
<i>Husnixat metodikasi</i>	<i>Boshlang'ich sinflarda "Ona tili" fani quyidagi bo'limlarni o'rganadi:</i>
<i>O'qish metodikasi</i>	<i>Savod o'rgatish va nutq o'stirish</i>
<i>Grammatika, fonetika, imlo va so'z yasallishini o'rganish metodikasi</i>	<i>Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish</i>
<i>Nutq o'stirish metodikasi</i>	

O'qitish texnologiyalarida mumkin bo'lgan o'ta chegara darajasida soddalashtirish yuqori darajada maqsadlarning keng tanlovini, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni talab qiladigan ta'lim muammolarini hal qilish, ya'ni turli-tumanlikni, xilma-xillik darajasini oshirish, ta'lim faoliyatining variativligi, o'zgaruvchanligini yaxshilash mumkin bo'lgan barcha narsalarni amalga osirish imkonini beradi. Iyerarxik komrensatsiyalar qonunidan kelib chiqib, umumiy tizimlar nazariyasida zarur turli-tumanlik, xilma-xillik qonuni amal qiladi. Ushbu qonunga binoan, me'yor, normalar, standartlar, algoritmizatsiya va umuman texnologiyaning joriy yetilishi hisobiga o'quv-tarbiya jarayonini jiddiy darajada soddalashtirmasdan (iyerarxiyaning rast darajasi), vositalar tanlovining cheklanganlik holatida, tobora murakkablashib borayotgan ta'lim tizimini tartibga solish, unga tahdid soladigan betartiblikni yengish qiyin.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalaridagi mustaqil ta'lim jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. O'zbekiston, 2018. – 89 b.
2. Abduqodirov A.A, Pardayev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2012 yil, -104 b.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – 159 b.